

## IQTISODIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKSPORT KORXONALRGA INVESTITSIYA KIRITISHNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

*Fayzullayev Umidjon Dilshod o'g'li*  
*TDIU magistranti*  
*Tel: +998 33 321 99 99*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunning rivojlanishi uchun hamda taraqqiy topishida eksport korxonalarining nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda eksport korxonalarini moliyalashtirishdagi imtiyozlar haqida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Eksport, import, innovatsiya, modernizatsiya, infratuzilma, kredit, investitsiya, bank, foiz, resurs, kashfiyot, moliyalashtirish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda, raqobatbardoshlikni oshirishda eksport korxonalarga investitsiya kiritish muhim omillardan biridir. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, rivojlanishning yuqori o'sish darajasini ushlab turish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlar xaridorligiga erishish, milliy valyuta tushumini ko'paytirish kabi muhim vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Iqtisodiy globallashuv sharoitida eksport korxonalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratiladi va iqtisodiy taraqqiyotni umumiyligi shart-sharoitlarini yaxshilab boradi hamda iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirilishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish mukammal omillarga ega bo'lishi talab etiladi va zaruriy iqtisodiy resurslar, ya'ni investitsiyalarni talab etadi. Bunda korxonalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy-siyosiy belgilarini takomillashtirilishiga yo'naltiriladi. Bunday investitsiyalar resurslar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, xizmatlar, mulkchilik shakllari, iqtisodiy mexanizm, intilinayotgan g'oya va siyosatning ustuvorligini ta'minlanishiga qaratiladi. Eksport salohiyatini oshirishga ulkan hissa qo'shadi.

O'zbekistonda yil yakuni bo'yicha eksport korxonalarga xorijiy investitsiyalar hajmi avvalgi yildagiga nisbatan oshib, 6,6 milliard dollarga yetishi va eksport ko'rsatkichi 15,1 milliard dollar miqdorida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Koronavirus pandemiyasi sababli investitsiyalar miqdorining 40 foizga pasayishi va 2020-yilda jahon savdosi hajmining 25 foizga kamayganiga qaramay, mamlakatda yirik investitsiya loyihalar va korxonalar ishga tushirilgan. 2021 yilda 7,5 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va eksport hajmini 17 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan<sup>1</sup>. Muvaffaqiyatga erishish uchun eksport korxonalarini rolining doimiy ravishda o'sib borishi bugungi bozor holatining muhim xususiyati hisoblanadi: tashqi muhitdagi vaziyatning o'zgarishi kompaniyalar

<sup>1</sup> <https://mininnovation.uz>

faoliyatidagi innovatsiyalarning roli va o‘rnini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. bir qator muammolarni innovatsiyalar yordamida yechish mumkin. Yaqin yillargacha firmalar o‘z daromadlarini ekstensiv rivojlanish, sodda qilib aytganda, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sonini ko‘paytirish hisobiga oshirib kelgan.

Rivojlangan mamlakatlarda aholi sonining o‘sishidagi to‘xtashi mazkur mamlakatlar iqtisodiyotida innovatsiyalardan keng va samarali foydalanishni taqozo etgan bo‘lsa, yana bir omil korxonalar sifatida ishlab chiqarish xom ashyosi baholarining o‘sishi, innovatsion jarayonlarni tezlashtirishda muhim turtki bo‘lganligini kuzatish mumkin. Eksport korxonalarda innovatsiyalar sohasida uzoq muddatli va o‘rta muddatli investitsiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki innovatsiyaning hayot aylanishi 3-5 yil va undan ko‘proq davom etadi.

Bizga ma’lumki, iqtisodiy globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘sish investitsiya, innovatsiya va resurslarsiz bo‘lishi mumkin emas, bu resurslar o‘z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag‘dir. Pul mablag‘lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so‘ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Shuningdek, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2023-yilda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan eksport korxonalarga investitsiya loyihalari 9 tani tashkil etib, bular xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Mazkur loyihalarning 6 tasi bo‘yicha manbasi va hajmi aniqlashtirilgan bo‘lib, umumiyligi 335,7 mln. AQSH dollarini tashkil etadi<sup>2</sup>. Innovatsiyalar sohalar kesimida kiritilgan bo‘lib, har bir sohada kelajakda kata yutuqlarga erishish maqsad qilingan. Maqolani kengroq yoritish maqsadida quyidagi diagrammada eksport korxonalariga innovatsiya kiritish ko‘rsatkichlari keltirilgan.



Ushu diagrammadan ko‘rishimiz mumkinki Mamlakatimizda ishlab chiqarishga 52 %, qurilish sohasiga 28 % boshqa faoliyat turlariga 18 % innovatsiya kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki ishlab chiqarish sohasiga eng ko‘p

<sup>2</sup> <https://mininnovation.uz/>

yangiliklar kiritilgan bu esa iqtisodiy global sharoitida milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘z navbatida, milliy iqtisodiyotni yanada mustahkamlash uchun importni cheklash, tashqi savdoni tarif va notarif boshqarish orqali emas, Fan, milliy innovatsion tizim va texnologiyalarni rivojlantirish, innovatsion biznesni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotda innovatsiyalarga talabni kengaytirish, kichik va o‘rta innovatsion biznesni yaratish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan innovatsion biznesni tashkil etish va rivojlantirishdagi ma’muriy to‘sirlarni qisqartirish va kichik va o‘rta biznes innovatsiyalariga o‘tish uchun talablarni shakllantirish orqali tadqiqotlar va ishlanmalar uchun davlat buyurtmalarini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlaridagi texnologik qoloqlikni kamaytirish maqsadida institutlar, universitetlar va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin.

Innovatsiyani hayotga joriy qilishdan maqsad biror bir ijobiy natijaga erishishdir. Bundan shuni anglash mumkinki, innovatsiya sohasi o‘z-o‘zidan investitsiya sohasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Iqtisodiy globallashuv sharoitida eksport korxonalari faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

Elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste’molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;

Ichki va tashqi bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash<sup>3</sup>.

Albatta, iqtisodiy global sharoitda milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, uning raqobatbardoshligini oshirishda eksport korxonalarning o‘rni beqiyos. Lekin mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi astoyidil mehnat qilishni talab talab etiladi. Mamlakat iqtisodiyoti va iqtisodiyot subyektlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositalaridan biri-davlat iqtisodiy siyosatining bo‘g‘inlaridan hisoblanuvchi innovatsiya siyosatidir.

Davlat innovatsiya siyosati yordamida bevosa ishlab chiqarish hajmi sur’atlari oshishiga, fan-texnika taraqqiyoti tezlashishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishi o‘zgarishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishga ta’sir o‘tkaza oladi.

### Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aystsak, Iqtisodiy globallashuv sharoitida yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatizsiz tasavvuz etib bo‘lmaydi. Investitsiya loyihalarini eksport korxonalarga jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Yani maishiy muhtojliklarning katta bo‘limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarish kengayadi, yangi mehnat kuchlari shakillanadi, eski va og‘ir mehnat turmishidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o‘tiladi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish

<sup>3</sup> O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.

darajasini bugungi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo‘ldoshev N.Q. va boshqalar. «Iqtisodiyotda Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2015y
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.
3. A.N.Jo‘raev “Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatinibaholash” ;
4. <https://mininnovation.uz/>
5. <https://strategiya.uz/>